



AMIRIY LIRIKASIDA TOPONIMLARNING O'RNI

Ne'matova Malikaxon Zafarjon qizi

Qo'qon DPI 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amiriy lirikasida uchraydigan toponimlarning leksik-semantik, tarixiy va poetik funksiyalari tahlil qilingan, shoir asarlaridagi geografik joy nomlarining qay yo'sinda qo'llanganligi yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: lirika, toponimika, geografik nom, poetika, badiiy makon, kontekst, tarixiy toponimlar.

Annotation: This article analyzes the artistic-semantic, historical-poetic functions of toponyms found in the lyrics of Amir Umar Khan, and provides comments on the use of geographical place names in the poet's work.

Key words: lyrics, toponymy, geographical name, poetics, artistic space, context, historical toponyms.

KIRISH

Tilning leksik tarkibini tashkil etuvchi muhim qatlamlardan biri- toponimlar, ya'ni joy nomlaridir. Toponimlar xalq tarixining, madaniyatining, etnik tarkibining, diniy qarashlarining eng qadimiy til xotirasidir. Shu sababli toponimlarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etno-madaniy, sotsiolingvistik ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilshunosligida toponimika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

A.Madrahimov, X. Doniyorov, I.G'aniyev, M.Jo'rayev, O.Bozorov kabi olimlarning izlanishlari bu yo'nalishlarning nazariy asoslarini belgilaydi.

Taniqli toponimist olim N.Oxunov ham o'zining toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Olim toponimlarni paydo bo'lgan davri bilan bog'liq xronologik tasnifga ko'ra eski va yangi nomlarga ajratib, eski nomlarga urug'-qabilachilik davri, aholining sinfiy, ijtimoiy tabaqalanishi, diniy e'tiqod, tushuncha va tasavvurlarga aloqador, o'tmishdagi katta yer egalari – feodallar, xonlar, amirlar, beklar va shu kabi amaldorlar nomi bilan bog'liq, turli xil voqea-hodisalarni bildiruvchi, o'tmishdagi amal, mansabni ifodalovchi nomlar asosida shakllangan toponimlarni kiritishni taklif etgan. Yangi nomlar – neotoponimlar sirasiga esa nisbatan keyingi davrda paydo bo'lgan nomlarni kiritgan.¹¹

Toponimlarni tasniflash borasida K.Yusupovning qarashlari ham e'tiborga loyiq. Olim toponimlarni leksik-semantik jihatdan sakkiz ma'noviy guruhga ajratishni taklif etgan:

- 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar;
- 2) millat nomini bildiruvchi toponimlar;
- 3) kishilar ismiga qo'yilgan toponimlar;

¹¹ Охунув Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989.



- 4) kasb-hunarga nisbat berilgan toponimlar;
- 5) predmet belgisini ifodalovchi toponimlar;
- 6) o'simlik (daraxt)lar nomi bilan yuritiladigan toponimlar;
- 7) el-yurt, vatan nomi bilan bog'langan toponimlar;
- 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar.¹²

Yuqorida bayon etilganlardan ma'lum bo'ladiki, tadqiqotchilar toponimlarni tasniflashda turli-tuman jihatlarga e'tibor qaratganlar.

Amir Umarxon ijodi- O'rta Osiyo adabiyoti va Qo'qon xonligi madaniy tarixining muhim manbalaridan biridir.

Shoirning she'riy merosi nafaqat badiiy-estetik qadriyatga, balki o'z davrining siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarini aks ettiruvchi hujjat sifatida yuqori ilmiy qimmatga ham ega.

Ayniqsa, Amir Umarxon lirikasida uchraydigan toponimlar- shahar, mintaqa va geografik joy nomlari- uning poetik tasavvurida nafaqat joyni, balki tarixiy xotira, madaniy identifikatsiya va badiiy ramz sifatida muhim funksiyani bajaradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Amiriy lirikasida toponimlarning qo'llanilishi, shoirning estetik qarashlari, tarixiy dunyoqarashini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va ular matnning mazmuniy, estetik, tarixiy va ma'naviy qatlamlarini boyitishda muhim o'rin tutadi.

Xususan, Amiriy ijodida Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona kabi toponimlar uchraydiki, bu toponimlar shoir yashagan muhit, uning siyosiy faoliyati va tarixiy shaxs sifatidagi o'rnini aks ettiradi. Masalan,

Ko'zlaring Farg'ona ahli ko'nglini qildi xarob,
Mohir ermishlar qamu g'oratga Turkiston eli.[334]

O'zbek mumtoz adabiyotida shahar nomlarining badiiy timsolga aylanishi ko'plab asarlarda kuzatiladi. Bu holat M.G'afurovning markaz-makon munosabatiga oid tadqiqotlarida ham qayd etiladi¹³.

Joy nomlarini badiiy timsol sifatida qo'llash Amiriy ijodi uchun ham xosdir. Ma'lumki, qadimdan Shohimardon toponimi go'zal, so'lim, bahavo joy sifatida talqin etilgan. Quyidagi misolda ham aynan shu holatni ko'rish mumkin:

Amir, ar bo'lsa ko'nglungda tamannoyi g'azo qilmoq,
Bu maydon shevasini Shohimardondin tamosho [219]

Xalq og'zaki ijodida pirlar dargohi sifatida nisbat beriladigan joy ham aynan, Shohimardondir. Shu boisdan Shohimardonning pirga ishora ma'nosi Amir Umarxon ijodida ham uchraydi.

Iloho, davlatingni xaq faravon aylasun, shohim,
Madad holingg'a doim Shohimardon aylasun, shohim[246]

Badaxshon toponimi mumtoz adabiyotda la'l qimmatbaho toshiga boy yurt sifatida qo'llaniladi. La'l lirikada adabiy istiloh sifatida yorning labiga ishora qiladi. Amir Umarxon ham o'z ijodida shahar nomidan mazkur ma'noda foydalangan.

¹² Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966.

¹³ G'afurov M. O'zbek adabiyotida makon poetikasi.-Toshkent,2010.



Labini yod qilib, shavqida qon bo'ldi jigar,
Orzu maxzanidin la'li Badaxshon topdim.

Xo'tan toponimi:

Hindu Kashmiru Xo'tanda yo'q saningdek nozanin,
Bosh olib, hajringda sayri sabzavor aylay bukun.

Xo'tan o'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviy tarzda qo'llanuvchi nomlaradn bo'lib, geografik nom sifatida Xitoyning g'arbiy qismidagi daryo, Tarim daryosining o'ng irmog'i¹⁴ ni ifodalaydi. Shu bilan birag mazkur nomdagi shahar vujudga kelgan. O'zbek adabiyotida, odatda, toponim sifatida qabul qilingan. Xo'tan so'zi ohu (kiyik), sahro (dasht), mushk so'zlari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, ishqiy asarlarda yorning ko'zi, xushbo'y isini ifodalaydi.¹⁵

Xito, Chin toponimlari Amir Umarxon ijodida, ayniqsa uning tuyuqlarida qo'llangan. Ma'lumki, ushbu toponimlar mumtoz adabiyotimizda ilm-ma'rifat bilan bog'liq holda uchraydi. Shoirning quyidagi misrasida esa omonim so'zlar orqali Chin go'zallarini ohuning go'zalligiga qiyoslayotganligini ko'rishimiz mumkin:

Navxatim zulfidin ochqan chog'da chin,
Munfildur mushkdin ohuyi Chin.
Chin-u Mochin zulfi purtobidadir,
Bu so'zum yolg'on emasdur, barcha chin.

Misir toponimi sharq adabiyotida mashhur afsonaviy qahramon, go'zallik ramzi Yusuf nomi bilan keladi:

Shoxsan husn-u malohat Misrida Yusufnison,
Partavi mehri jamolingdin munavvardur jahon.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Amir Umarxon lirikasida shoir ijodining badiiy-estetik qimmatini, tarixiy-madaniy mazmunini hamda individual uslubini ochib beruvchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shoir she'riy matnlarda geografik nomlardan faqat makon ko'rsatkichlari sifatida emas, balki ramziy, hissiy obrazlar sifatida mahorat bilan foydalangan. Amiri ijodida uchraydigan toponimlar tarixiy hududlar, shaharlar va muqaddas maskanlar bilan bog'liq bo'lib, ualr orqali shoir davr ruhini, siyosiy-ijtimoiy muhitni hamda milliy ongni aks ettiradi. Shu bilan birga toponimlar shoirning dunyoqarashi, tarixiy xotiraga munosabati va madaniy merosga e'tiborini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanishi xususiyatlari. – T: Fan, 1989.
2. R.A. Jo'rayeva. Muqimiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlari. Fill...fan...fals..dok(PhD) diss. Qo'qon-2022.
3. G'afurov M. O'zbek adabiyotida makon poetikasi. -Toshkent, 2010.
4. Yusupov K. Ayrim toponimlar masalasi// O'zbek tili va adabiyoti. – 1966.

¹⁴ <http://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xotan-uz>

¹⁵ R.A. Jo'rayeva. Muqimiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlari. Fill...fan...fals..dok(PhD) diss. Qo'qon-2022.